

31-dars

Darsning mavzusi: Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi (133-138-mashqlar)

Darsning ta'limiylar maqsadi: otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi haqida ma'lumot berish, egalik qo'chimchalarni ajrata olish haqidagi ko'nikmalarni o'stirish; o'qilgan matn mazmunini va o'zgalar fikrini anglab, ifodalay olish, og'zaki nutqda so'z va gaplar ohangiga riosa qila olish, so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni farqlaydi, gapning ohangiga ko'ra tinish belgilarni (nuqta, so'roq, undov belgilari) ishlata olish;

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarda insoniylik fazilatlarini tarbiyalash; axborot manbalaridan va darslik materiallaridan tashqari (kitob, lug'at) manbalardan ma'lumotlarni izlab topa olish va foydalanish; o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunib, o'zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish, kattalarga, kichiklarga va o'rtoqlariga yordam berish; o'zidan kattalarga, o'rtoqlariga va o'zidan kichiklarga yordam berish;

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish; talaffuz me'yorlariga, bo'g'in ko'chirish qoidasiga riosa qila olish, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish.

Darsning turi: o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi dars.

Darsning metodi: suhabat, mustaqil ish metodi, "O'yla, izla, top" ta'limiylarini, guruhlarda ishlash

Darsning jahozi: mavzuga oid rasmlar, so'zlar yozilgan kartochkalar, multimedia ilovalari.

Darsning borishi

I.Tashkiliy qism.

-salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilarni darsga hozirlash.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi:

Til- dil kaliti.

Uyga berilgan 132-mashq og'zaki o'qitish orqali tekshiriladi. Har bir og'zaki javob bergan o'quvchining javobi birgalikda izohlab, mustahkamlab boriladi va rag'batlantiriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

133-mashq. Otlarni o'qing. Asosini aniqlang.

Maktab maktabim

Maktabing maktabingiz

Maktabi maktablari

Namunadagidek chiziladi.

Yodda tutinq!

-m, -im, -ng, -ing, -si, -l, -miz, -imiz, -ngiz, -ingiz, -sl egalik
qo'shimchalaridir.

Egalik qo'shimchalari shaxs va narsaning qaysi shaxsga qarashli ekanini bildiradi.

Tilda 3 ta shaxs bor:

I shaxs – so'zlovchi -m, -im, -miz, -imiz- I shaxs

II shaxs – tinglovchi -ng, -ing, -ngiz, -ingiz – II shaxs

III shaxs – o`zga -l, -si - III shaxs

134-mashq. Shartiga ko'ra guruhlarda bajariladi.

Topishmoqlar o'qib , javobi berilgan turli rasmlar ichidan topiladi.

Toshbaqa, xonqizi, sholg'om, no'xot

135-mashq. Mashq shartiga ko'ra ko'chiriladi.Otlar qaysi shaxsda ekanligi qavsda yoziladi.

Namuna; Vatanimiz (I shaxs) ,

136-mashq. Testlar yechiladi.

Test kaliti : 1. B 2. B 3. E 4. B 5. D

137-mashq. Berilgan egalik qo'shimchalar yordamida so'zlar tuziladi.

So'ng shu so'zlar yordamida kichik matn tuziladi

IV. Darsga yakun yasash va baholash

Dars yakunida o'quvchilar joriy darsda o'zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish.

138-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.